KOLLOKATSIYALARNING PRAGMATIK POTENSIALI

To‘rayeva Nilufar Ulug‘bek qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Lingvistika: ingliz tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada kollokatsiyalarning pragmatik potensiali kognitiv va diskursiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kollokatsiya tushunchasining struktur, leksik-semantik va statistik talqinlari qayta ko‘rib chiqilib, uning semantic prosody, frame semantics, entrenchment va diskursiv ideologik yuk bilan bog‘liq jihatlari integrativ model asosida izohlanadi. O‘zbek va ingliz tillari materiallari asosida empirik qiyosiy tahlil amalga oshirilib, kollokatsiyalarning baholovchi, madaniy va kommunikativ funksiyalari aniqlanadi. Natijalar kollokatsiyalarni oddiy leksik kombinatsiya emas, balki ko‘p qatlamli pragmatik operator sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kollokatsiya, pragmatika, semantik prosodiya, kontekst, diskurs, kognitiv mustahkamlanish, ramka semantikasi.

Abstract. The article analyzes the pragmatic potential of collocations from the perspective of cognitive and discourse linguistics. The study revisits the structural, lexical-semantic, and statistical interpretations of the concept of collocation and explains its relationship with semantic prosody, frame semantics, entrenchment, and discursive ideological load within an integrative model. An empirical comparative analysis based on Uzbek and English language data is conducted to identify the evaluative, cultural, and communicative functions of collocations. The findings demonstrate that collocations should not be treated as simple lexical combinations, but rather as multilayered pragmatic operators.

Keywords: collocation, pragmatics, semantic prosody, context, discourse, entrenchment, frame semantics.

KIRISH.

Kollokatsiya zamonaviy tilshunoslikning markaziy, ammo ko‘p ma’noli kategoriyalaridan biridir. Dastlab kollokatsiya so‘zlarning tasodifiy bo‘lmagan birga kelishi sifatida talqin etilgan bo‘lsa [5: 168-205] , keyinchalik u leksik-semantik tizimning muhim elementi sifatida ko‘rila boshlandi. MakKevn va Radev [7: 507-523] kollokatsiyalarni idiom va erkin birikmalar oralig‘ida joylashgan birlik sifatida ta’riflaydi. Biroq bunday struktur tasnif kollokatsiyaning kommunikativ va pragmatik funksiyasini to‘liq ochib bermaydi. Halliday va Hasan [6: 374] kollokatsiyani lexical cohesion vositasi sifatida ko‘rsatib, uning matn ichidagi semantik bog‘liqlikni ta’minlashdagi rolini asoslab berdi. Bu yondashuv kollokatsiyani sintagmatik yaqinlikdan diskursiv mexanizm darajasiga olib chiqdi. Sinkler [11:179] “semantic prosody” tushunchasini ilgari surib, kollokatsiyalarning yashirin baholovchi yukini ilmiy asosda ko‘rsatdi. Masalan, *cause* fe’lining salbiy kontekst bilan muntazam bog‘lanishi uning pragmatik xarakterini ifodalaydi. Bu hodisa kollokatsiyaning ideologik va diskursiv ta’sir kuchini ochib beradi. Poulsen [10: 201-219] esa kollokatsiyalarni funksional-kognitiv resurs sifatida talqin qilib, ularning entrenchment jarayoni orqali ijtimoiy va kognitiv mustahkamlanishini ko‘rsatadi. Pragmatik potensial deganda kollokatsiyaning nutqda qanday “ishlash”ini nazarda tutish muhim, chunki kollokatsiya tinglovchi nutqni qanday baholashi, qanday munosabat bildirishiga tasir ko‘rsatadi. Shu bilan birga kollokatsiya yordamida so‘zlovchi diskursni qanday qurishi va qanday qilib tinglovchini ma’lum yo‘nalishga solishi mumkin. Bu nuqtada Sinkler ilgari surgan konsepsiya juda muhim, ya’ni u “tilning asosiy birligi so‘z emas, balki unit of meaning” ekanini, leksik tizim ichida esa “collocation” va “colligation” bilan birga “semantic prosody” ham mavjud bo‘lishini ko‘rsatadi. Shu yerda muhim savol tug‘iladi. Agar kollokatsiya baholashni, diskursni, ijtimoiy signallarni tashisa, uni faqat “to‘g‘ri birikma” sifatida ko‘rish yetarli emas. Kollokatsiya nutqda ishlaydigan resurs ekanligi bois uni pragmatik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish zarur. Demak,

kollokatsiya ko‘pincha yashirin baholovchi qatlamni ham tashiydi. Kollokatsiyalar tez-tez qo‘llanish natijasida ongda avtomatlashadi va kommunikativ jarayonda tezkor vosita sifatida ishlaydi. Shunday qilib, kollokatsiya endilikda nafaqat kombinatorik birlik, balki pragmatik operator sifatida qaralishi zarur. Mazkur maqolaning maqsadi kollokatsiyalarning pragmatik potensialini ko‘p qatlamli nazariy model asosida tahlil qilish va o‘zbek hamda ingliz tillarida ularning qiyosiy realizatsiyasini aniqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Kollokatsiyaning “oraliq maqomi” haqidagi fikrlar, avvalo, MakKevn va Radevlarning ishlarida juda aniq ko‘rinadi. Ularning ta’rificha kollokatsiya idioma va erkin birikma orasidagi birlik bo‘lib, “shaffof ma’no + cheklangan tanlov” tamoyili bilan ajraladi. Aynan shu joyda cheklangan tanlovning o‘ziyoq pragmatik signal ya’ni “men til normasi ichidaman”, “men tabiiy nutq rejimida gapiryapman” degan ko‘rinmas belgi ifodalaydi. Keyingi muhim tayanch buHalliday va Hasan yondashuvidir. Ular kollokatsiyani matndagi leksik bog‘liqlik mexanizmlaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv kollokatsiyani pragmatik jihatdan boshqacha yo‘sinda ochadi ya’ni kollokatsiya matnni “bir ipga tizadi”, o‘quvchi/tinglovchi ongida kutilish va izchillik hosil qiladi. Bu pragmatik ta’sirning yumshoq, ammo barqaror shaklidir. Alohida ahamiyatli yo‘nalishlardan yana biri bu Melchukning “Meaning-Text” doirasidagi “Lexical Functions” modelidir. Bu model kollokatsiyani nazariy jihatdan “tartibga soladi”. Qaysi leksik birlik qaysi birlik bilan odatda keladi, qaysi biri normativ-uzual, qaysi biri esa kam uchraydigan yoki g‘ayritabiiy ekanligini ko‘rsatadi. Pragmatik tahlilda bu juda qulay chunki baholovchi yoki diskursiv yukni “tasodifiy” birikmalardan emas, aynan uzusga kirgan normativ kollokatsiyalardan izlash ancha ishonchli. Va, albatta, kollokatsiya pragmatikasi deyilganida Sinkler paradigmasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Chernousova keltirgan sharhda Sinklerning “unit of meaning” modeli va “semantic prosody” komponenti alohida ta’kidlanadi. Buni kollokatsiyaning pragmatik

“yuragi” deb hisoblash mumkin chunki “semantic prosody” til birliklarining “baholashni yashirin tashishi”ni tushuntiradi. Shuning uchun prosodik qatlamni ham pragmatik potensial tarkibiga kiritish mumkin. Orlova kollokatsiyalarni (ayniqsa A+N birikmalarni) faqat leksik jihatdan emas, prosodik jihatdan ham o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi va interferensiya sharoitida kollokatsion xatolar “grammatik to‘g‘ri, lekin tabiiy bo‘lmagan” holatni keltirib chiqarishini asoslaydi. Bu shuni anglatadiki kollokatsiyaning pragmatik ta’siri ba’zan intonatsiya orqali ham kuchayadi yoki susayadi.

“Semantic prosody” bu so‘zning muntazam kollokatsion muhit orqali hosil qiladigan baholovchi aurasidir [11: 179]. Bu hodisa kollokatsiyaning yashirin pragmatik kuchini tashkil etadi. Masalan, ingliz tilida *severe consequences, grave mistake, heavy criticism*. O‘zbek tilida esa *og‘ir oqibat*, *keskin tanqid*, *jiddiy xató* kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Har ikki tilda baholovchi yuk mavjud, biroq ifodalanish mexanizmi farq qiladi. Ingliz tilida ko‘pincha sifat + ot modeli orqali kuchaytirish amalga oshiriladi, o‘zbek tilida esa baholovchi sifatlarning semantik intensivligi yuqori bo‘ladi. Filmor [4: 111-137] nazariyasiga ko‘ra, til birliklari ma’lum konseptual ramkalar (frame) asosida ishlaydi. Kollokatsiyalar vaziyat modeli bilan motivatsiyalangan bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida *sign a contract*, *make a payment*, *reach an agreement*. O‘zbek tilida esa *shartnoma imzolamoq*, *to‘lovni amalga oshirmoq*, *kelishuvga erishmoq*. Bu birliklar iqtisodiy vaziyat modeli asosida shakllanadi. Demak, kollokatsiya vaziyatga bog‘langan pragmatik konstruksiyadir. Poulsen [10: 201-219] kollokatsiyalarning tez-tez qo‘llanish orqali ongda mustahkamlanishini ko‘rsatadi. Bu jarayon entrenchment deb ataladi. Masalan ingliz tilida *take responsibility,* o‘zbek tilida *mas’uliyatni zimmasiga olmoq*. Har ikkala birlik ham konvensionalashgan va alternativ variantlari pragmatik jihatdan noqulaydir. “Entrenchment” kollokatsiyaning pragmatik tezkorligini va diskursda avtomatik qo‘llanishini ta’minlaydi.

MUHOKAMA

Kollokatsiyaning pragmatik potensiali haqida gapirganda, uchta masalani “asosiy bahs tuguni” sifatida ko‘rish mumkin.

Birinchidan, kollokatsiyani faqat “ko‘p uchraydigan juftlik” deb tushuntirish ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. Ha, korpusda tez-tez uchrash kollokatsiya uchun muhim belgidir, lekin u yakka o‘zi kollokatsion normani kafolatlamaydi. MakKevn va Radevning ogohlantirishi shu yerda o‘z kuchini ko‘rsatadi. Ular ayrim birliklar semantik yaqinlik (dunyo haqidagi bilim) tufayli ko‘p uchrashi mumkin, ammo bu har doim ham kollokatsiya degani emas deb aytadi [7: 507-523]. Pragmatik nuqtayi nazardan aytganda, kollokatsiya “real dunyoda birga keladigan” birlik emas, “til odati birga qo‘yadigan” birlikdir. Bu farq juda muhim chunki pragmatika aynan odat, norma, konvensiya va nutq strategiyasini o‘rganadi.

Ikkinchidan, kollokatsiya pragmatik potensialining “yadro mexanizmi” “semantic prosody”dir. Sinkler modelida “semantic prosody” leksik tizimning tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatilgani sabab, kollokatsiyalarning baholovchi quvvati endi tasodifiy kuzatuv emas, nazariy asosga ega hodisa sifatida qaraladi [11: 179]. Bu juda muhim bo‘lib ko‘p hollarda kollokatsiyalar “neytral axborot” ko‘rinishida keladi, lekin aslida ular nutqda pozitsiya bildiradi. “Muammo” va “jiddiy muammo” o‘rtasidagi farq faqat intensivlik emas, u tinglovchini “bu holatga befarq bo‘lish mumkin emas” degan yo‘nalishga ham undaydi. Aynan shunday misollarda kollokatsiya pragmatik operator sifatida ishlayotganini ko‘rish mumkin.

Uchinchidan, kollokatsiyaning pragmatik quvvatini faqat leksik-semantik qatlam bilan cheklash ham to‘liq emas. Orlova interferensiya sharoitida kollokatsion kompetensiya buzilishida prosodik omilni alohida ta’kidlaydi [9: 22]. Shuni e’tirof etish kerakki ayrim holatlarda leksik jihatdan “to‘g‘ri” kollokatsiya ham, noto‘g‘ri urg‘u yoki intonatsiya sabab, tabiiy eshitilmaydi, tabiiylik yo‘qolishi esa pragmatik qabul qilinuvchanlikni pasaytiradi. Boshqacha aytganda, kollokatsiyaning pragmatik potensiali “ma’no” bilan birga “taqdim”ga ham bog‘liq. Yana bir nozik

nuqta shuki Halliday va Hasan kollokatsiyani “cohesion” doirasida ko‘rsatadi [6: 374], Melchuk esa uni formal tizimlashtirishga urunadi [8: 365]. Aslida bu ikki qarash bir-biriga raqib emas, aksincha, bir-birini to‘ldiradi. “Cohesion” yondashuvi kollokatsiyaning diskurs qurilishidagi rolini ko‘rsatadi, “Lexical Functions” esa shu rolni aniq “lug‘aviy mexanika” orqali tartiblaydi. Pragmatik tahlil uchun ikkalasi ham kerak bo‘lib biri matn “qanday oqishini” ko‘rsatsa, ikkinchisi “nima bilan oqishini” ko‘rsatadi.

NATIJALAR.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib kollokatsiyaning pragmatik potensialini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin. Avvalo, kollokatsiya pragmatik qabul qilinuvchanlik indikatoridir. MakKevn va Radev ta’rifidagi “oraliq maqom” shuni ko‘rsatadiki, kollokatsiyada muammo grammatik imkoniyatda emas, normativ tanlovda, tanlov esa real muloqotda “tabiiylik”ni belgilaydi [7: 507-523]. Demak, kollokatsiya qo‘llanishi orqali so‘zlovchi o‘z nutqini “til normasi ichida” ushlab turadi. Ikkinchi natija shundan iboratki, kollokatsiya pragmatik potensialining markazida “semantic prosody” turadi. Sinkler konsepsiyasida “semantic prosody” ma’no birligining ichki komponenti sifatida ko‘rsatilgani [11:179] kollokatsiyalarning baholovchi yuk tashishini konseptual ravishda mustahkamlaydi. Bu natija shuni anglatadiki kollokatsiyalar ko‘pincha “baholashni yashirin tashiydi” va diskursda pozitsiya bildiradi. Uchinchi natija bu kollokatsiyaning matn darajasidagi pragmatik vazifasi. Halliday va Hasan kollokatsiyani leksik bog‘liqlik doirasida talqin qilgani [6: 374] shuni ko‘rsatadiki kollokatsiyalar matnni bog‘laydi, izchillik yaratadi, tinglovchi ongida “kutilish” mexanizmini kuchaytiradi. Bu holatda pragmatik potensial “baholash”dan tashqari, “tushunarlilik va qabul qilinuvchanlik” orqali ham namoyon bo‘ladi. To‘rtinchi natija formal modellashtirishning pragmatik foydasidir. Melchukning “Lexical Functions” modeli [8: 365] kollokatsion tanlovni tizimlashtirishga xizmat qiladi. Bu o‘z navbatida pragmatik talqinda tasodifiy kuzatuvlarni kamaytiradi va “normativ birikish”ni

aniqroq ko‘rsatadi. Shunday qilib, pragmatik tahlil “hissiyot”ga emas, tizimli mezonga yaqinlashadi. Beshinchi natija bu korpus-statistik yondashuvlarning maqomi. MI va XTRACT (Church & Hanks; Smadja) kollokatsiyalarni avtomatik ajratishda muhim biroq ularni pragmatik tahlilning yakuni emas, boshlang‘ich saralash bosqichi deb ko‘rish kerak. Chunki yuqori chastota yoki kuchli assotsiatsiya pragmatik yukning o‘zi emas, balki pragmatik yuk “semantic prosody” va diskurs kontekstida ochiladi [11:179]. Nihoyat, oltinchi natija bu kollokatsiya pragmatik potensialiga prosodik qatlam ham kirishi mumkin. Orlova [9: 22] interferensiya sharoitida kollokatsiyani prosodik jihatdan ham o‘rgatish zarurligini asoslagan holda, kollokatsion kompetensiyaning amaliy va fonopragmatik tomonini ko‘rsatadi. Bu natija kollokatsiyaning pragmatik kuchi ko‘pincha “semantik mazmun” + “nutqiy taqdim” sintezida yuzaga chiqishini anglatadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki kollokatsiya hodisasini pragmatik nuqtayi nazardan o‘qish tilshunoslikdagi bir qator “soddalashtirilgan tasavvur”larni qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Kollokatsiya, bir tomondan, idiom va erkin birikma orasidagi oraliq birlik bo‘lib, normativ tanlovni talab qiladi [7: 507-523]. Ikkinchi tomondan, u matnning leksik bog‘liqligini kuchaytirib, diskurs izchilligiga xizmat qiladi [6: 374]. Eng muhimi, Sinkler konsepsiyasi kollokatsiyaning “yashirin baholash mexanizmi” (semantic prosody) orqali ishlashini ko‘rsatadi. Shu jihat kollokatsiyani pragmatik operator sifatida talqin qilishga asos beradi [11:179]. Kollokatsiyaning pragmatik potensiali aynan mana shu uch chiziqda jamlanadi yani normativ tabiiylik, baholovchi yashirin qatlam, diskurs qurilishi. Agar bu uchlikka prosodik taqdim omilini ham qo‘shsak [9: 22] kollokatsiya faqat “so‘z birikmasi” emas, balki kommunikativ ta’sirning nozik, ammo barqaror vositasi ekanini yanada aniqroq ko‘ramiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Benson M. Collocations and idioms // Berlin Journal of English Studies. - 1990. - Vol. 3. - P. 61-68.

Church K. W., Hanks P. Word association norms, mutual information and lexicography // Proceedings of the 27th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics. - Vancouver, 1989. - P. 76-83.

Chernousova E. Revisiting Sinclair's theory of semantic prosody // Journal of Corpus Linguistics. - 2021. - Vol. 14, № 2. - P. 45-59.

Fillmore C. J. Frame semantics // Linguistics in the Morning Calm. - Seoul: Hanshin Publishing, 1982. - P. 111-137.

Firth J. R. A synopsis of linguistic theory 1930-1955 // Selected Papers of J. R. Firth 1952-1959 / Ed. by F. R. Palmer. - London: Longman, 1968. - P. 168-205.

Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. - London: Longman, 1976. - 374 p.

McKeown K. R., Radev D. R. Collocations // Handbook of Natural Language Processing. - New York: Marcel Dekker, 1998. - P. 507-523.

Mel'čuk I. A. Surface Syntax of English: A Formal Model within the Meaning-Text Framework. - Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1987. - 365 p.

Орлова Е. В. Английская коллокация в условиях интерференции: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Иваново, 2011. - 22 с.

Poulsen S. Collocations as functional-cognitive units: A usage-based perspective // Cognitive Linguistics Review. - 2005. - Vol. 12, № 3. - P. 201-219.

Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. - Oxford: Oxford University Press, 1991. - 179 p.

Smadja F. Retrieving collocations from text: XTRACT // Computational Linguistics. - 1993. - Vol. 19, № 1. - P. 143-177.